

IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLI QATLAMLARINI QO‘LLAB- QUVVATLASHDA DAVLAT VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI HAMKORLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

Tursunkulov Elbek Oybek o‘g‘li

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya
yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Abduhakimov Anvar Shaydullo o‘g‘li

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya
yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligining huquqiy tabiati, shakllari hamda protsessual kafolatlari tadqiq etildi. Normativ, qiyosiy-huquqiy, tizimli-funksional va huquqiy modellashirish metodlari asosida O‘zbekiston qonunchiligi Italiya, Germaniya va Angliya modellari hamda Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya talablari bilan qiyoslandi. Natijada siyosatni shakllantirishdagi ishtirok, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatni ko‘rsatish va jamoatchilik nazorati huquqiy oqibatlari turlicha bo‘lgan to‘rtta hamkorlik shakli sifatida ajratildi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy xizmatlar, nodavlat notijorat tashkiloti, ijtimoiy sheriklik, davlat ijtimoiy buyurtmasi, subsidiya, akkre*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning 57-moddasi mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalari huquqlarini davlat himoyasiga oladi, davlat zimmasiga ularning turmush sifatini oshirish, jamiyat va davlat hayotida to‘laonli ishtiroki uchun shart-sharoit yaratish hamda asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘rish majburiyatini yuklaydi [1]. Mazkur norma ijtimoiy yordamni faqat pul to‘lovi bilan cheklamaydi; u shaxsning mustaqilligi, inklyuziyasi va jamiyat hayotidagi ishtirokini ta‘minlaydigan xizmatlar tizimini ham talab qiladi.

Ijtimoiy davlatning ushbu majburiyatlarini faqat davlat muassasalari orqali bajarish zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarning xilma-xilligi, hududiy tafovutlar va individual qo‘llab-quvvatlash zarurati sababli yetarli emas. NNTlar muayyan guruhlarining ehtiyojini erta aniqlashi, ishonchga asoslangan aloqa o‘rnatishi, innovatsion xizmatlarni sinovdan o‘tkazishi

va davlat tizimi yetib bormagan shaxslarni qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga, davlat mablag‘i hisobidan yoki davlat vakolati doirasida xizmat ko‘rsatilganda tenglik, kasbiy standart, ma‘lumotlarning maxfiyligi, shikoyat qilish va xizmat uzluksizligi kabi ommaviy-huquqiy kafolatlar saqlanishi shart.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun NNTni ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy, xayriya va boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladigan tashkilot sifatida belgilaydi [2]. “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun esa ularning mustaqil faoliyati, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asoslarini mustahkamlaydi [3]. Demak, NNT davlat organining quyi bo‘g‘ini emas, o‘z ustav maqsadi va institutsional mustaqilligiga ega hamkor hisoblanadi.

“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy sheriklik subyektlari sifatida e‘tirof etilib, dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishdagi ishtirok, birgalikdagi loyihalar, maslahatlashuvlar, bitimlar, davlat subsidiyasi, granti va ijtimoiy buyurtmasi kabi shakllar nazarda tutilgan [4]. “Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasi NNTlarga ehtiyojmand shaxslarni aniqlash, xizmat ko‘rsatish, davlat dasturlarida qatnashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, davlat ijtimoiy buyurtmasi, subsidiya va grant olish imkonini beradi [5]. Biroq mazkur vakolatlar qanday ketma-ketlikda, qaysi tanlov mezonlari va foydalanuvchi kafolatlari asosida amalga oshirilishi yagona tartibda belgilanmagan.

2023-yildan boshlab Ijtimoiy himoya milliy agentligi va tuman (shahar)lardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasiga yaqinlashtirdi [9]. Keyingi hujjatlar davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlar klassifikatori, keys-menejment, xizmat ko‘rsatuvchilarni akkreditatsiyalash, namunaviy shartnomalar, natijadorlik monitoringi, davlat ijtimoiy buyurtmasi va vaucher asosidagi subsidiyalarni bosqichma-bosqich joriy etdi [10–12]. Bu rivojlanish davlat–NNT hamkorligini xayriya tadbiridan professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimiga o‘tkazmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda davlat – NNT munosabatlari resurs almashinuvi, shartnomaviy boshqaruv, sheriklik va birgalikda xizmat ishlab chiqarish modellari orqali izohlanadi. Gazley va Brudney hamkorlik moliyaviy resurslar bilan birga bilim, legitimlik va qamrovni kengaytirishini, lekin maqsadlar nomuvofiqligi va hisobdorlik muammolarini ham keltirib chiqarishini ko‘rsatadi [22]. Van Slyke ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha shartnomalarda nazorat bilan ishonchning muvozanati, bozor raqobatining cheklanganligi va NNTlarning boshqaruv salohiyati hal qiluvchi ekanini asoslaydi [23]. Bode va Brandsen esa uchinchi sektor tashkilotlari faqat pudratchiga aylanganda ularning advokatsiya va jamoatchilik vakilligi vazifalari zaiflashishi mumkinligini qayd etadi [24]. Hamkorlikdagi boshqaruv va

koproduksiya bo'yicha tadqiqotlar foydalanuvchini xizmatning passiv oluvchisi emas, muammoni aniqlash, yechimni loyihalash va natijani baholash ishtirokchisi sifatida ko'rishni talab qiladi [25–27].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning normativ korpusini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], NNTlar maqomi va kafolatlariga oid qonunlar [2; 3], "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun [4], ijtimoiy xizmatlar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga oid qonunlar [5; 6], "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun [7], Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish haqidagi Qonun [8], Prezidentning PF–82-son Farmoni [9] hamda 2024–2026-yillardagi sektor hujjatlari [10–13] tashkil etdi. Xalqaro mezon sifatida Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning 4(3)-moddasini sharhlovchi 7-son umumiy izoh [14; 15] qo'llanildi.

Normativ metod yordamida "ijtimoiy sheriklik", "davlat ijtimoiy buyurtmasi", "subsidiya", "xizmat ko'rsatish shartnomasi", "akkreditatsiya" va "jamoatchilik nazorati" institutlarining mazmuni hamda o'zaro chegaralari aniqlandi. Tizimli-funksional metod hamkorlikni ehtiyojni aniqlash, dasturlash, ijrochini tanlash, xizmat ko'rsatish, moliyalashtirish, monitoring va nizolarni hal etish bosqichlaridan iborat sikl sifatida tahlil qilishga xizmat qildi. Huquqiy modellashtirish orqali ijtimoiy xizmatlar bo'yicha davlat – NNT hamkorlik shartnomasining zarur elementlari ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tahlil davlat–NNT hamkorligi yagona huquqiy munosabat emasligini ko'rsatdi. Birinchidan, NNT siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda maslahat beruvchi yoki manfaatdor guruh vakili sifatida qatnashadi. Ikkinchidan, davlat subsidiya va grant orqali NNTning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi. Uchinchidan, davlat ijtimoiy buyurtmasi, xarid, vaucher yoki shartnoma asosida aniq xizmatni ko'rsatishni moliyalashtiradi. To'rtinchidan, NNT davlat va xizmat ko'rsatuvchilar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Ushbu shakllarning subyekt tarkibi, mablag'ning maqsadi, natija uchun javobgarlik va nazorat standartlari bir xil bo'lishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy darajada davlatning natija uchun javobgarligi, umumiy ijtimoiy sheriklik qonunchiligida tomonlarning tashkiliy mustaqilligi va hamkorlik shakllari, sohaviy qonunchilikda xizmat turlari, individual dastur va monitoring, maxsus hujjatlarda esa muayyan guruh yoki xizmat uchun moliyalashtirish hamda ijro tartibi belgilanadi. Mazkur qatlamlar o'zaro bog'langan, biroq ularni yagona ish jarayoniga birlashtiruvchi protsessual ko'prik yetarli emas.

1-jadval. Davlat–NNT hamkorligining normativ qatlamlari va ularning vazifasi

Huquqiy qatlam	Asosiy mazmun	Hamkorlikdagi vazifasi
Konstitutsiyaviy	Ijtimoiy davlat; ehtiyojmand shaxslar huquqlarining davlat himoyasi	Davlatning yakuniy javobgarligi va teng foydalanish kafolati
Umumiy institutsional	NNT mustaqilligi, ijtimoiy sheriklik, grant, subsidiya va ijtimoiy buyurtma	Hamkorlik shakli, tomonlar maqomi va moliyaviy vositalar
Sohaviy	Ijtimoiy xizmat turlari, individual dastur, standart, monitoring va jamoatchilik nazorati	Xizmat mazmuni va foydalanuvchi huquqlarini belgilash
Maxsus guruhlar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar, bolalar, keksalar va zo‘ravonlikdan jabrlanganlar kafolatlari	Maqsadli ehtiyoj, oqilona moslashtirish va vakillik
Ijro mexanizmlari	Reyestr, akkreditatsiya, vaucher, autsorsing, namunaviy shartnoma va natijadorlik bahosi	Ijrochini tanlash, to‘lov va nazoratning amaliy tartibi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], O‘RQ–376 [4], O‘RQ–415 [5], O‘RQ–641 [6], PF–82 [9] va Vazirlar Mahkamasining 484-son qarori [10] asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

O‘RQ–415-son Qonunning 7-moddasi NNTlarni ijtimoiy xizmatlar sohasidagi organlar va tashkilotlar tizimiga kiritadi. 11-moddada NNT ehtiyojmand shaxslarni aniqlashi va hisobini yuritishi, xizmat ko‘rsatishi, ehtiyojlarni o‘rganishi, davlat dasturlari va loyihalarida ishtirok etishi, davlat ijtimoiy buyurtmasi, subsidiyasi va grantini olishi hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkinligi belgilangan [5]. Qonunning 21-moddasi individual dastur xizmat shakli, turi, hajmi, davriyligi, sharti, muddati va mas’ul shaxslarni qamrab olishini, u xizmat oluvchi yoki qonuniy vakil ishtirokida ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Ushbu normalar NNT ko‘rsatadigan xizmat uchun ham bir xil qo‘llanishi lozim.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-avgustdagi 484-son qarori davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar klassifikatorini tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar xizmatni bevosita, shartnoma, subpudrat, davlat ijtimoiy buyurtmasi yoki boshqa tartibda ko‘rsatuvchi barcha tashkilotlar uchun majburiy deb belgiladi [10]. Hujjat shuningdek

moliyalashtirish normativlarini hisoblash, xizmat ko‘rsatuvchilarni litsenziyalash yoki akkreditatsiyalash, namunaviy shartnoma, natijadorlik monitoringi va NNTlarni monitoringga jalb etish bo‘yicha vazifalarni nazarda tutadi. Demak, huquqiy siyosat shakliga emas, xizmat standartiga asoslangan neytral provayderlar tizimiga yo‘nalmog‘da.

Prezidentning 2024-yil 8-noyabrdagi PQ–389-son qarori nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport inshootlariga borib-kelishiga ko‘maklashuvchi hamrohlik xizmatiga NNTlar va ko‘ngillilarni davlat ijtimoiy buyurtmasi orqali jalb qilish, bu xarajatlarni Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirish imkonini yaratdi [11]. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-maydagi 271-son qarori esa “Erta aralashuv” xizmatini ko‘rsatuvchi nodavlat tashkilotlar elektron reyestri va bolaga ajratilgan vaucher asosida subsidiya to‘lash mexanizmini joriy etdi [12]. Bu ikki misol birinchisida buyurtmachi tanlaydigan ijrochi, ikkinchisida esa malaka talabiga javob beruvchi provayderlar orasidan foydalanuvchi tanloviga yaqinlashuvchi model shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Biroq ijtimoiy sheriklik, davlat ijtimoiy buyurtmasi, davlat xaridi va vaucher bir-birining sinonimi emas. Ijtimoiy sheriklik umumiy maqsad va resurslarni birlashtirishga; grant NNT tashabbusini moliyalashtirishga; ijtimoiy buyurtma davlat aniqlagan ijtimoiy ahamiyatli vazifani bajarishga; xarid haq evaziga oldindan belgilangan xizmatni olishga; vaucher esa mablag‘ni foydalanuvchining tanloviga bog‘lashga xizmat qiladi. Shakl noto‘g‘ri tanlansa, ochiqlik va tenglik talablari chetlab o‘tilishi yoki aksincha, birgalikda innovatsion yechim ishlab chiqish oddiy eng past narxli xaridga aylanishi mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or xorijiy tajribada NNTlarga faqat moliyaviy mablag‘ ajratish bilan cheklanilmay, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning aniq tartib-taomillari ham belgilanadi. Italiyada *co-programmazione* mexanizmi ehtiyojlar, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan choralalar va mavjud resurslarni birgalikda aniqlashga, *co-progettazione* esa muayyan loyiha yoki xizmatni hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan [16; 17]. Italiya Konstitutsiyaviy sudi 131/2020-son qarorida mazkur mexanizmlarni oddiy bozor munosabatlaridan farq qiluvchi, umumiy maqsadlarga erishish va mavjud resurslarni birlashtirishga asoslangan hamkorlik shakli sifatida baholagan [18]. Angliyaning *Care Act 2014* hujjati 5-bo‘limida esa mahalliy hokimiyat organlariga xizmatlar bozorining barqaror faoliyatini ta‘minlash bilan birga, xizmat ko‘rsatuvchilar xilma-xilligi, xizmatlar sifati hamda foydalanuvchilar ehtiyojlariga mos yetarli xizmatlar mavjudligini ta‘minlash vazifasi yuklatilgan [20].

3-jadval. Xorijiy huquqiy mexanizmlarning qiyosiy tahlili va O‘zbekiston uchun ahamiyati

Tizim	Asosiy mexanizm	O‘zbekiston uchun huquqiy ahamiyati
Italiya	Ehtiyojlarni hamkorlikda dasturlash, loyihalash va akkreditatsiya	NNTni tayyor loyihaga ijrochi sifatida emas, muammoni aniqlash bosqichidan jalb etish
Germaniya	Erkin ijtimoiy ta’minot subyektlariga vazifa topshirish, davlat javobgarligini saqlash	Vakolat topshirilishi foydalanuvchi oldidagi ommaviy javobgarlikni bekor qilmasligini qonunda yozish
Angliya	Mahalliy hokimiyatning sifatli va xilma-xil provayderlar tizimini shakllantirish majburiyati	Akkreditatsiyani faqat kirish nazorati emas, hududiy yetarlilik va uzluksizlik vositasi sifatida belgilash
Yevropa Ittifoqi	Ijtimoiy xizmat xaridlarida sifat, uzluksizlik, foydalanish imkoniyati va foydalanuvchi ishtiroki	Eng past narx o‘rniga huquqqa asoslangan sifat mezonlari va xizmat oluvchining imkoniyatlarini kengaytirish

Manba: Italiya Uchinchi sektor kodeksi va 72/2021-son yo‘riqnomasi [16; 17], Germaniya SGB XII [19], Care Act 2014 [20] hamda 2014/24/EU-son Direktivasi [21] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot natijasida ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha davlat – NNT hamkorligining yetti bosqichli modeli ishlab chiqildi: 1) hudud va maqsadli guruh ehtiyojini dalillarga asoslangan holda baholash; 2) xizmat oluvchilar va ularning vakillik tashkilotlari bilan hamkorlikda dasturlash; 3) xizmat modeli, standart va resurslarni hamkorlikda loyihalash; 4) shaffof tanlov yoki akkreditatsiya orqali malakali provayderni aniqlash; 5) individual dastur va ijtimoiy xizmat shartnomasi asosida xizmat ko‘rsatish; 6) foydalanuvchi fikri, sifat va natijadorlikni mustaqil monitoring qilish; 7) shikoyat, qayta ko‘rib chiqish va provayder almashganda xizmat uzluksizligini ta’minlash.

Mazkur mexanizmning asosiy huquqiy hujjati “ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha hamkorlik shartnomasi” bo‘lishi lozim. Ushbu shartnomada xizmatning maqsadi va huquqiy asosi, xizmatdan foydalanuvchilar doirasi, xizmat ko‘rsatishning umumiy va individual talablari, hududiy hamda jismoniy foydalanish imkoniyati, mutaxassislarining malakasiga qo‘yiladigan

talablar, moliyalashtirish tartibi, shaxsga doir ma'lumotlarni almashish shartlari, xabardor qilingan rozilikni olish tartibi, kamsitishga yo'l qo'ymaslik kafolatlari, hisobot va audit talablari, foydalanuvchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari, xizmatni vaqtincha to'xtatish yoki shartnomani bekor qilish asoslari, favqulodda holatlarda xizmatlar uzluksizligini ta'minlash tartibi hamda davlat organining xizmat ko'rsatish uzluksizligini kafolatlash bo'yicha majburiyatlari aniq belgilanishi kerak.

Monitoring faqat qancha xizmat ko'rsatilgani va qancha mablag' sarflanganini o'lchamasligi kerak. Natija ko'rsatkichlari shaxsning mustaqilligi, xavfsizligi, jamiyatga qo'shilishi, zarur xizmatga o'z vaqtida kirishi va o'z ehtiyojini mustaqil qondirish imkoniyati kabi huquqiy ahamiyatga ega o'zgarishlarni aks ettirishi lozim. Biroq faqat natijaga haq to'lash murakkab holatdagi shaxslarni qabul qilmaslikka undashi mumkin. Shu bois moliyalashtirish bazaviy tayyorgarlik xarajati, amalda ko'rsatilgan xizmat hajmi, natija komponenti va murakkab holat uchun adolatli tuzatish koeffitsiyentini uyg'unlashtirishi maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA

Olingan natijalar davlat – NNT hamkorligining samaradorligi ko'proq mablag' ajratishning o'ziga emas, hamkorlik turi va javobgarlikni to'g'ri huquqiy loyihalashga bog'liqligini ko'rsatadi. Davlat NNTning mahalliy bilim va ishonch kapitalidan foydalanadi, NNT esa barqaror moliyalashtirish va davlat tizimiga yo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo buyurtmachi maqsadlarni bir tomonlama belgilasa, juda batafsil hisobotlar NNTning resursini xizmatdan ma'muriy jarayonga buradi; uzoq muddatli moliyaviy qaramlik esa tanqidiy jamoatchilik pozitsiyasini zaiflashtiradi [22; 24]. Shuning uchun hamkorlik shartnomasi NNTning ustaviy mustaqilligi va xizmat oluvchilar manfaatini himoya qilish huquqini ham kafolatlashi kerak.

Davlat xaridi bilan hamkorlikda loyihalash o'rtasidagi chegara alohida ahamiyatga ega. Davlat oldindan to'liq belgilangan xizmatni haq evaziga sotib olayotgan bo'lsa, teng raqobat, oshkoralik va xarid qoidalari qo'llanishi tabiiy. Muammo murakkab, ehtiyoj va yechim oldindan to'liq aniqlanmagan, tomonlar resurs va tajribasini umumiy maqsad yo'lida birlashtirayotgan bo'lsa, Italiya modelidagi hamkorlikda dasturlash va loyihalash maqsadga muvofiq [16–18]. Bunda ham ochiq e'lon, ishtirok mezonlari, manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish, qarorni asoslash va natijaviy kelishuvni e'lon qilish talab etilishi lozim.

Akkreditatsiya NNTga imtiyoz berish emas, xizmat oluvchi uchun sifat kafolati bo'lishi kerak. Kirish talablari mutanosib bo'lmasa, faqat yirik va poytaxtdagi tashkilotlar reyestriga kira oladi, chekka hududlardagi kichik NNTlar esa foydali mahalliy tajribasiga qaramay chetda qoladi. Shu sababli akkreditatsiya ikki darajada tashkil etilishi mumkin: barcha

provayderlar uchun majburiy xavfsizlik, etik va kasbiy minimum; murakkab yoki yuqori xavfli xizmatlar uchun qo‘shimcha maxsus talablar. Davlat kichik NNTlarga standartga erishish uchun o‘quv-uslubiy ko‘mak ko‘rsatishi, lekin baholash mezonlarini yumshatmasligi kerak.

Jamoatchilik nazorati hamkorlik tizimining mustaqil elementi bo‘lib qolishi zarur. O‘RQ–415-son Qonunning 25-moddasi NNTlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, OAV va fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beradi, davlat organlari esa nazoratga ko‘maklashishi va uning natijalarini ko‘rib chiqishi shart [5]. O‘RQ–474-son Qonunda jamoatchilik muhokamasi, eshituv, monitoring va ekspertiza kabi shakllar nazarda tutilgan [7]. Xizmat ko‘rsatuvchi va shu xizmatni nazorat qiluvchi bir tashkilot bo‘lsa, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. Shu bois provayder NNT o‘z shartnomasi bo‘yicha mustaqil nazorat komissiyasida hal qiluvchi ovozga ega bo‘lmasligi, nazoratga xizmat oluvchilarning boshqa vakillik tashkilotlari va mustaqil ekspertlar jalb qilinishi kerak.

Foydalanuvchi shikoyati umumiy murojaat tartibidan tashqari tezkor, qulay va xavfsiz kanalga ega bo‘lishi lozim. Kognitiv, eshitish, ko‘rish yoki harakatlanish cheklovlari bo‘lgan shaxslar uchun mos formatlar, vakil orqali murojaat qilish, shikoyat sababli xizmatdan mahrum etmaslik kafolati va mustaqil qayta ko‘rib chiqish mexanizmi talab etiladi. NNT xizmatni to‘xtatgan, litsenziyasi yoki akkreditatsiyasi bekor qilingan yoxud shartnoma nizosi yuzaga kelgan holatda davlat organi individual dastur bo‘yicha xizmatni boshqa provayder orqali uzluksiz davom ettirishi shart.

Institutsional jihatdan Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamkorlikning yagona metodologiyasi, namunaviy hujjatlar va provayderlar reyestrini yuritishi; “Inson” markazlari hududiy ehtiyojni baholashi, individual keysni boshqarishi va xizmat oluvchini provayderga yo‘naltirishi; mahalliy Kengashlar hududiy xizmatlar yetarliligi va budjet ijrosi ustidan nazorat olib borishi; vakillik NNTlari esa dasturlash, mustaqil monitoring va foydalanuvchi huquqlarini himoya qilishda ishtirok etishi maqsadga muvofiq. Bunday taqsimot davlat organi, xizmat ko‘rsatuvchi va nazorat qiluvchi subyekt funksiyalarining bir qo‘lda jamlanishini cheklaydi.

XULOSA

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligini takomillashtirish uning huquqiy shakllari hamda protsessual bosqichlarini aniq belgilashni talab etadi. Hamkorlik ehtiyojlarni baholash, xizmatlarni birgalikda rejalashtirish, provayderlarni shaffof tanlash, individual dastur asosida xizmat ko‘rsatish, mustaqil monitoring va shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayonlarini qamrab olishi lozim. Mazkur munosabatlarning asosiy huquqiy vositasi sifatida tomonlarning

vakolatlari, moliyalashtirish tartibi, xizmat standartlari, javobgarligi va xizmat oluvchilarning huquqlarini belgilovchi namunaviy hamkorlik shartnomasini joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, davlat va NNTlar hamkorligining samaradorligi yangi moliyalashtirish shakllarini joriy etish bilangina emas, balki ehtiyojni aniqlashdan xizmat natijasini baholashgacha bo‘lgan huquqiy-protsessual zanjirning uzluksizligi bilan belgilanadi. NNTlarga xizmat ko‘rsatish vakolati berilishi davlatning xizmatlarning sifati, teng foydalanish imkoniyati va uzluksizligi bo‘yicha yakuniy javobgarligini bekor qilmasligi kerak. Taklif etilgan model ijtimoiy xizmatlarning ochiqligi, barqarorligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi 763–I-son “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-11360>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-yanvardagi O‘RQ–76-son “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1101278>
4. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi O‘RQ–376-son “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2468214>
5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrdagi O‘RQ–415-son “Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3083192>
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ–641-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5049511>
7. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O‘RQ–474-son “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3679092>
8. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyundagi O‘RQ–695-son “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5447413>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF–82-son “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6480342>

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-avgustdagi 484-son “Aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-7051227>

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi PQ–389-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy rehabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-7215989>

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-maydagi 271-son “Ruhiy holati buzilgan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat muassasalarini takomillashtirish va yangi ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-8218769>

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–185-son “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7228799>

14. United Nations. (2006). Convention on the Rights of Persons with Disabilities. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-persons-disabilities>

15. Committee on the Rights of Persons with Disabilities. (2018). General Comment No. 7 on the participation of persons with disabilities through their representative organizations. <https://www.ohchr.org/en/documents/general-comments-and-recommendations/general-comment-no7-article-43-and-333-participation>

16. Italy. (2017). Legislative Decree No. 117 of 3 July 2017, Code of the Third Sector, Article 55. <https://www.gazzettaufficiale.it/eli/id/2017/08/02/17G00128/sg>

17. Italian Ministry of Labour and Social Policies. (2021). Decree No. 72 of 31 March 2021: Guidelines on relations between public administrations and Third Sector entities under Articles 55–57 of Legislative Decree No. 117/2017. <https://www.lavoro.gov.it/documenti-e-norme/normative/Documents/2021/DM-72-del-31032021.pdf>

18. Italian Constitutional Court. (2020). Judgment No. 131/2020. <https://www.cortecostituzionale.it/scheda-pronuncia/2020/131>

19. Germany. Social Code, Book XII (Social Assistance), Section 5: Relationship with independent welfare services. https://www.gesetze-im-internet.de/sgb_12/_5.html

20. United Kingdom. (2014). Care Act 2014, Section 5: Promoting diversity and quality in provision of services. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2014/23/section/5>

21. European Parliament and Council. (2014). Directive 2014/24/EU on public procurement, Article 76. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2014/24/oj/eng>

22. Gazley, B., & Brudney, J. L. (2007). The purpose (and perils) of government–nonprofit partnership. *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 36(3), 389–415. <https://doi.org/10.1177/0899764006295997>
23. Van Slyke, D. M. (2007). Agents or stewards: Using theory to understand the government–nonprofit social service contracting relationship. *Journal of Public Administration Research and Theory*, 17(2), 157–187. <https://doi.org/10.1093/jopart/mul012>
24. Bode, I., & Brandsen, T. (2014). State–third sector partnerships: A short overview of key issues in the debate. *Public Management Review*, 16(8), 1055–1066. <https://doi.org/10.1080/14719037.2014.957344>
25. Pestoff, V. (2006). Citizens and co-production of welfare services: Childcare in eight European countries. *Public Management Review*, 8(4), 503–519. <https://doi.org/10.1080/14719030601022882>
26. Ansell, C., & Gash, A. (2008). Collaborative governance in theory and practice. *Journal of Public Administration Research and Theory*, 18(4), 543–571. <https://doi.org/10.1093/jopart/mum032>
27. Bryson, J. M., Crosby, B. C., & Stone, M. M. (2006). The design and implementation of cross-sector collaborations: Propositions from the literature. *Public Administration Review*, 66(s1), 44–55. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6210.2006.00665.x>